

## **KICHIK TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARINING UMUMIY IQTISODIY HOLATINI BAHOLASH DINAMIKASI**

**Ergasheva Fotima Ibragimovna**

Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Iqtisodiyot” kafedrasи dotsenti, PhD

**Ismoilova Gulnoza Ravshanjonovna**

Namangan muhandislik-texnologiya instituti “Iqtisodiyot” yo’nalishi magistri

**Annotatsiya:** Maqolada kichik tadbirkorlik sub'yektlarining bugungi kundagi ahamiyati bayon etilgan. Sohada faoliyat ko’rsatayotgan biznes sub'yektlari soni hamda ayrim iqtisodiy ko’rsatkichlarda ularning ulushi tahlili berilgan. SHuningdek, ishbilarmonlik muhiti holatini o’rganishdagi tahlillar orqali baholash darajalari ko’rsatkichlari keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** kichik biznes, tadbirkorlik, iste’molchilar ehtiyoji, ishbilarmonlik muhiti, kichik korxona va mikrofirmalar soni, sohalar kesimi, umumiy iqtisodiy vaziyat, tanlanma kuzatuv, qoniqarli, qoniqarsiz

### **KIRISH**

Jahon xo’jalik tizimi taraqqiyoti tarixi shundan dalolat beradiki, erkin raqobat hukm surgan hozirga qadar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida markaziy o’ringa ega bo’lmoqda.

Bunda korxonalarning o’zaro iqtisodiy munosabatlari bozor orqali amalga oshib, narx, talab va taklif mutanosibligiga ko’ra shakllanadi. Bu esa iste’molchilar ehtiyojini qondirishga asoslangan holda amalga oshib boradi. Aholi ehtiyojini qondirish darajasi qanchalik rivojlanib borar ekan, uning hayot farovonligi shunchalik oshib boradi.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning mazkur sohasida erishilayotgan ijodiy o’zgarishlar, respublikada uni jadal rivojlantirish imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi.

Shu boisdan ham, respublika hukumati xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirish yo’lida, ularning tashabbusini rag’batlantirish uchun barcha zarur shart sharoitlar yaratib bermoqda. Bu tashabbus hukumat tomonidan qo’llab-quvvatlanayotgani uchun ham, mamlakatimizda kichik biznes kun sayin yangi bosqichlarga ko’tarilmoqda.

Bu borada Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Yagona yo’limiz – tadbirkorlar sonini

# "YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 4, April 2024

ko'paytirish, odamlarni ishbilarmon qilish! Har bir hokim byudjetga qo'shimcha daromadlarni ta'minlashi uchun o'zi izlanishi, tadbirkorga sharoit yaratib, biznes vakillari bilan yelkama-elka ishlashi kerak [1].

Demak kichik tadbirkorlik va uning rivojlanish sohasidagi mavjud muammolarning bartaraf etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

## Asosiy qism

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berilayotgan katta e'tiborlar natijasida 2018-2023 yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami 510,1 mingta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi.

### 1-jadval

**2022-2023 yillar yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2022 yil	2023 yil	Mutloq o'zgarish (+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	523 556	417 080	-106 476
Yangi tashkil etilgan	birlik	90 177	86 030	-4 14 7
<b>Kichik tadbirkorlik ulushlari:</b>				
YaIM	%	51,6	51,2	-0,4
Sanoat	%	26,0	26,9	0,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	94,8	94,8	-
Investitsiya	%	47,9	51,4	3,5
Qurilish	%	71,5	74,7	3,2
Chakana savdo	%	84,7	83,8	-0,9
Xizmatlar	%	49,4	47,7	-1,7
Yuk tashish	%	47,4	50,8	3,4
Yuk aylanmasi	%	72,4	73,5	1,1
Yo'lovchi tashish	%	92,4	91,6	-0,8
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,0	95,1	0,1

# "YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 4, April 2024

Eksport	%	31,2	29,0	-2,2
Import	%	49,5	50,7	1,2

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi sub'yektlar savdo sohasida – 189,5 mingta (yoki 37,1 %), xizmatlar sohasida – 123,4 mingta (yoki 24,2 %), sanoat sohasida – 99,0 mingta (yoki 19,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 61,1 mingta (yoki 12,0 %) va qurilish sohasida – 37,1 mingta (yoki 7,3 %)ni tashkil etilgan [24].

2023 yilning yanvar-dekabrida YaIM tarkibida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi 51,2 % ni tashkil qildi.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining YaHMDagi hududlar bo'yicha eng yuqori ulushi Surxondaryo viloyatida – 75,9 %, Jizzax viloyatida 73,7 %, Namangan viloyatida – 72,8 %, Samarqand viloyatida – 72,8 %, Buxoro viloyatida – 71,7 % va Xorazm viloyatida – 69,7 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarining soni 2018 yilning yanvar-dekabrida 18 804 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 yilning yanvar-dekabriga kelib, 30 327 taga yetgan yoki 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 11 523 taga oshgan [24].

## 2-jadval

**Kichik korxona va mikrofirmalarning 2018-2023 yillar yanvar- dekabr oylari uchun umumiyl iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlikda**

Iqtisodiy holati	Qulay	Qoniqarli	Qoniqarsiz
2018 yil	18804	28154	3618
2019 yil	24667	40320	3960
2020 yil	17622	46421	8587
2021 yil	24991	43321	5354
2022 yil	28507	42544	5719
2023 yil	30327	43910	6052

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan kichik korxonalarining soni 2018 yilning yanvar-dekabrida 28 154 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 yilning yanvar-dekabrida 43 910 ta yoki 15 756 taga oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz

# "YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 4, April 2024

deb hisoblagan korxonalarning ulushi 2018 yilning yanvar-dekabrida 3 618 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilning yanvar-dekabriga kelib, 6 052 tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 2 434 taga oshgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, mamlakatimizda kichik biznes sohasidagi ko'plab ijobiy natijalar bor, lekin bu bilan birgalikda faoliyatni qoniqarsiz deb baholanishiga sabab bo'luvchi hamda sohani rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi muammolar ham bor. Bu muammolarga – sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishdagi muammolar [3,7,21], eksport salohiyati oshirishdagi to'siqlar [4], yangiliklar ishlab chiqish va joriy etish darajasining pastligi [18], sohada raqamli texnologiyani joriy etish [8,9] va undan foydalanishni kengaytirishdagi muammolar [10], samarali boshqarishgadagi to'siqlar, ishlab chiqarishni tashkil etish [2,11] va boshqarishda xorij tajribalarini joriy qilishdagi masalalar [17], mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanmaslik [22], sohani moliyalashtirishdagi to'siqlar [12,13], kichik biznes sohasidagi kadrlar malakasini oshirish masalalari, sohada yuqori malakaga ega bo'lgan, ishbilarmon, tashabbuskor kadrlarga ehtiyojni yuqoriligi [6], mehnat salohiyatidan unumli foydalanishdagi muammolar [23], ularni yangi texnologiyalar asosida o'qitishdagi muammolar [5], soha korxonalarida muvaffaqiyatli strategiyalarni ishlab chiqish va qo'llashdagi muammolar [14,15,16], soha sub'yektlarida moddiy resurslardan samarali foydalanish, tannarxni pasaytirish borasidagi muammolar [19,20] va boshqa shu kabilarni sanab o'tishimiz mumkin.

Biz bularga qo'shimcha ravishda ayrim muammolarni sanab o'tishimiz mumkin: mikro va makromuhitdagi kutilmagan siyosiy, iqtisodiy inqirozlarni vujudga kelishi; puxta ishlab chiqilmagan strategiyalar, korxona faoliyatining samarali ishlash tamoyillarini shakllantirilmaganligi, marketing faoliyatini qoniqarsiz tashkillashtirish va boshqa shu kabilar.

## Xulosa va tavsiyalar

Yuqoridagi tahlillar va fikrlardan kelib chiqqan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, kichik tadbirkorlikning rivojlanishi - mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida barqarorlikni ta'minlovchi richak; aholini ehtiyojini qondirish uchun zarur bo'lgan barcha turdag'i ne'matlarni yetkazib beruvchi soha; yoshlar shuningdek, aholining faol qismini ish bilan ta'minlashdagi asosiy vosita; iqtisodiyot tarmoqlarining deyarli barchasida amal qilishi mumkin bo'lgan soha va boshqa shu kabilar.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining rivojlanishi uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

yangi bozorlarga kirib borishni tashqi muhitga moslashuvchan strategiyasini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish; faoliyat olib borilayotgan bozor geografiyasini kengaytirish; onlayn-do'kon, ijtimoiy media kanallari, elektron pochta kanallarini tashkil etishni rivojlantirish; bozorni segmentlashtirish va shunga ko'ra savdoni tashkil etish; foydalanilmayotgan imkoniyatlarni topish va tahlil etish; eng maqbullarini ishga solish va boshqa shu kabilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Шавкат Мирзиёев: Ягона йўлимиз – тадбиркорлар сонини қўпайтириш, одамларни ишбилармон қилиш. <https://tergov.uz/oz/news/shavkat-mirzieev-nash-edinstvennyj-put-uvelichivat-chislo-predprinimatelej-realizovat-delovoj-potentsial-ljudej>
2. Dedajanov, B. N. (2022). Menejment. *Darslik.-Toshkent.: "Fan ziyosi" nashriyoti*, 580.
3. Эшов М.П. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиши: омиллар, натижалар ва истиқболлар. Монография. –Т.. «Маънавият», 2017. – 128 б. <file:///C:/Users/user/Downloads/3898-%D0%A2%D.pdf>
4. Dedajanov, B. N., & Ergasheva, F. I. (2019). ISSUES OF SUPPORT AND STIMULATION OF EXPORTING ENTERPRISES AND WAYS OF THEIR ELIMINATION. *Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова. Вступление. Путь в науку*, (3), 92-103.
5. Xabibullayevich, U. L., Nabijanovich, B. D., & Ibragimovna, F. E. (2020). Increasing effectiveness of economic educationprocessis basis for the development of qualification of entrepreneurship. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 210-215.
6. Ergasheva, Fotima (2019) "THE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE ENTREPRENEURSHIP QUALIFICATION," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1: Iss. 2, Article 200. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss2/200>
7. Дедажанов Б.Н., & Эргашева Ф.И. (2021). РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ. Экономика и социум, (1-1 (80)), 543-549.
8. Дедажанов Б.Н. ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ - ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ. Современные технологии и автоматизация в технике, управлении и

# "YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 4, April 2024

образовании. Сборник трудов III Международной Научно-практической конференции. Балаково, 2021. С. 293-297.

9. Lutfulla Xabibullayevich Ubaydullayev, & Bakhtiyor Nabijanovich Dedajanov. (2021). РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ: АФЗАЛЛИКЛАРИ ВА ХАТАРЛАРИ. *Markaziy Osiyo Ijtimoiy Tadqiqotlar Jurnali*, 2(01), 153-159. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a23>

10. Lutfulla Xabibullayevich Ubaydullayev, & Bakhtiyor Nabijanovich Dedajanov. (2021). THE DIGITAL ECONOMY: ADVANTAGES AND RISKS. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(01), 153-159. <https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a23>

11. Dedajanov, B. N., & Kholmirzaeva, K. H. (2021). Managerial Effectiveness: Content, Evaluation and Recommendations. *Account and Financial Management Journal*, 6(5), 2318-2323. <https://doi.org/10.47191/afmj/v6i5.01>

12. Эргашева, Ф. И. (2023). ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ЖАРАЁНИДА БОШҚАРУВНИНГ АСОСИЙ МАСАЛАЛАРИ. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).

13. Эргашева, Ф. И. (2023). БОШҚАРУВ ЖАРАЁНИИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: МУММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР. FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS", 14(1).

14. Dedajanov Bahtiyor Nabijanovich, & Mirzababaev Abdullo Mamasodikjonovich. (2021). OBSTACLES TO IMPLEMENTATION AND STRATEGY FORMULATION MANAGEMENT STRATEGY IN BUSINESS AND ISSUES OF ITS FORMATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 758–770. Retrieved from <https://giirj.com/index.php/giirj/article/view/432>

15. Nabijanovich, D. B. (2023, May). STRATEGIYA VA STRATEGIK BOSHQARISH: ILMIY YONDASHUVLAR VA XUSUSIYATLAR. In " CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES (Vol. 9, No. 1).

16. Nabijanovich, D. B. (2023, May). TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA BOSHQARUV STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. In " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE (Vol. 8, No. 1).

17. Dedajanov, B. N. (2021). FOREIGN MANAGEMENT MODELS: ADVANTAGES AND DISADVANTAGES. In ЭКОНОМИКА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В СОВРЕМЕННОМ ЦИФРОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ (pp. 17-20).
18. Dedajanov Bakhtiyor Nabijanovich. (2022). INNOVATIVE ACTIVITY MANAGEMENT ISSUES. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3744–3755. <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S06.499> (Original work published December 29, 2022)
19. Dedajanov, B., & Xusanboev, B. (2023). QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MODDIY RESURSLAR MAZMUNINING NAZARIY YONDASHUVLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(21). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/362>
20. Дедажанов Баҳтиёр Набижанович, & Хусанбоев Бобурмирзо Исокжон Ўғли (2023). ҚАЙТА ИШЛАШГА ИХТИСОСЛАШГАН КОРХОНАЛАРДА МОДДИЙ РЕСУРСЛАР ВА УЛАРНИ БОШҚАРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МАЗМУНИ. Экономика и финансы (Узбекистан), (3 (163)), 49-56. doi: 10.34920/eIf/vOL\_2023\_Issue\_3\_7
21. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АҲБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).
22. Дедажанов Баҳтиёр, & Камолиддинов Илҳомжон. (2022). ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИ ТАЪСИРИНИ ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Инновации в технологиях и естественнонаучном образовании*, 1 (1), 87–95. Получено с <http://humoscience.com/index.php/itse/article/view/13>
23. Dedajanov B.N., & Xusanboyev Boburmirzo isogjon o'g'li. (2022). EFFICIENCY OF LABOR POTENTIAL. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 218–227. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5YVXE>
24. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. *Stat.uz.*